



## NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



### **Navoiy viloyatida oliy ta'lim tizimining asosiy ko'rsatkichlari statistikasi**


2018 yilning 1 noyabr holatiga Navoiy viloyatida 2 ta oliy ta'lim muassasalari Navoiy Davlat Pedagogika instituti va Navoiy Davlat Konchilik instituti faoliyat yuritmoqda.

### **Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan jami talabalar to'g'risida**

2018/2019 o'quv yili boshiga oliy ta'lim muassasalaridagi jami 11641 nafar talabalar ta'lim olayotgan bo'lib, ularning 6845 nafarini qizlar tashkil etadi. Talabalarning 28 foizi davlat grantlari asosida, 72 foizi shartnoma asosida ta'lim olmoqda. Jami talabalar sonidan, kunduzgi bo'limda 10149 nafar, sirtqi bo'limda esa 1492 nafar talabalar ta'lim olmoqda.

# 1. Bakalavriat bosqichi


## 2018/2019 o'quv yilida oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga qabul, kishi



Oliy ta'lim muassasalari tomonidan taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarga asosan, 2018/2019 o'quv yili boshiga bakalavriat bosqichiga jami 3358 nafar, shu jumladan 799 nafari davlat grantlari asosida, 2559 nafar yoshlar esa shartnoma asosida talabalikka qabul qilingan. Qabul qilingan talabalardan 63,3 foizni (2127 nafar) qizlar tashkil etadi.

2018/2019 o'quv yili boshiga bakalavriat bosqichiga qabul qilingan talabalarning 2494 nafari kunduzgi, 864 nafari sirtqi bo'limlarga qabul qilingan.

## O'qiydigan kurslari bo'yicha bakalavriat bosqichi talabalari soni, kishi




Oliy ta'lim muassasalaridagi bakalavriat bosqichi talabalarining umumiy soni 11467 nafarni tashkil etib, shundan Navoiy Davlat Pedagogika institutida 8286 nafar, Navoiy Davlat Konchilik institutida esa 3181 nafar talabalar ta'lim olmoqda. Bakalavriat bosqichi talabalarining umumiy sonidan, kunduzgi bo'limda 9975 nafar, sirtqi bo'limda esa 1492 nafar talabalar ta'lim olmoqda. Bakalavr bosqichida davlat granti asosida o'qiyotgan talabalar 3145 nafarni tashkil etadi.

### Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriyat bosqichi bitiruvchilari

2018 yilda bakalavr darajasiga ega bo'lgan talabalar soni 2268 nafarni tashkil etib, ularning 778 nafari davlat grantlari asosida ta'lim olgan. 2018 yilda bakalavriat bosqichini bitirganlarning 1312 nafari qizlar tashkil etadi. Navoiy Davlat Pedagogika institutini 1637 nafar, Navoiy Davlat Konchilik institutini esa 631 nafar talaba bitirgan.

## 2. Magistratura bosqichi

### Oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichiga talabalar qabuli, kishi



2018/2019 o'quv yili uchun magistraturaga jami 92 nafar qabul qilingan talabalardan, 37 foizi (34 nafar) davlat granti asosida, 63 foizi (58 nafar) to'lov shartnoma asosida qabul qilindi.

## **Magistratura bosqichi talabalarining o'qiydigan kurslari bo'yicha taqsimlanishi**

Magistratura bosqichida ta'lim olayotgan jami talabalar soni 174 nafarni tashkil etib, ulardan 69 nafari davlat grantlari asosida, 105 nafari shartnoma asosida ta'lim olmoqda. Jami talabalarning 51 foizini (88 nafar) qizlar tashkil etgan bo'lsa ularning, 45 foizi (31 nafar) davlat grantlari asosida ta'lim olmoqda.

	<b>1 kurs</b>	<b>2 kurs</b>
Navoiy viloyati	92	82
Navoiy Davlat pedagogika instituti	56	42
Navoiy Davlat konchilik instituti	36	40


## **Oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichi bitiruvchilari**

2018 yilda oliy ta'lim muassasalari magistratura bosqichining 32 nafar bitiruvchilaridan, 19 nafari davlat grantlari asosida o'qigan. 2018 yilda magistratura bosqichini bitirganlarning 2 nafari qizlar tashkil etadi.

## Oliy ta'limning asosiy ko'rsatkichlari (2016-2018 yillar)


	Oliy ta'lim muassasalari soni	Talabalar soni	Qabul qilinganlar soni	Professor o'qituvchilar soni	Oliy ta'lim muassasalarini bitirgan talabalar soni
2016 y.	2	8822	2134	664	2097
2017 y.	2	9683	2821	650	2197
2018 y.	2	11641	3450	674	2300

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarning jinsi bo'yicha taqsimlanishi, %



2018/2019 o'quv yili boshiga oliy ta'lim muassasalaridagi jami 11641 nafar talabalardan 41 foizini (4796 nafar) yigitlar, 59 foizini (6845 nafar) qizlar tashkil etadi.

## Oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan talabalar soni, kishi




2018/2019 – o'quv yili boshiga oily ta'lim muassasalariga jami 3450 nafar yoshlar talabalikka qabul qilingan, shundan 24% davlat granti asosida, 76 % esa shartnoma asosida o'qishga qabul qilingan.

## Oliy ta'lim muassasalarida bitiruvchilar soni

2018 yilda oily ta'lim muassasalari bitiruvchilari soni 2300 nafarni tashkil etib, ulardan 2268 nafari bakalavr bosqichini, 32 nafar talaba esa magistratura bosqichini bitirgan. 2018 yilda bakalavriat bosqichini tamomlagan 2268 nafar talabalarning 1,4 foizi (32 nafari) magistratura bosqichida ta'lim olishni davom ettirmoqda. Ularning 50 foizini qizlar tashkil etadi. 2018 yilda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarning 1314 nafari yoki 57 foizini qizlar tashkil etadi. Shuningdek bitiruvchilarning 797 nafari davlat grantlari asosida ta'lim olib, bakalavr hamda magistr darajasiga ega bo'ldi.

## Bakalavriat bosqichida ta'lim muassasasidan ketgan talabalarning sabablari bo'yicha taqsimlanishi, %



2017 yilning 1 noyabridan 2018 yilning 1 noyabriga qadar bakalavr bosqichi talabalarining 157 nafari oliy ta'lim muassasasidan ketgan bo'lib, ulardan 21 nafari o'zlashtirilmasligi sababli, 9 nafari kasalligi tufayli, 19 nafari kontrakt to'lovini bajarmaganligi uchun, 97 nafari o'qishni boshqa oliy ta'lim muassasasiga ko'chirganligi sababli hamda 11 nafari boshqa turli sabablarga ko'ra ketgan.




## Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan jami talabalarning yoshi bo'yicha taqsimlanishi

	Jami	17 yosh	18 yosh	19 yosh	20 yosh	21 yosh	22 yosh	23 yosh	24 yosh	25 yosh va undan katta
<b>Navoiy viloyati</b>	11641	1	328	1165	1575	1872	1766	1255	1018	2661

Oliy ta'lim muassasalaridagi talabalarning 2019 yil 1 yanvar holatiga to'ladigan yoshi bo'yicha taqsimlanganda, 18 yoshgacha bo'lgan talabalar 2,8 foizini, 19 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan talabalar 74,3 foizini, 25 yosh va undan katta yoshdagi talabalar 22,9 foizini tashkil etadi.

## Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan jami talabalarning o'qitish tillari bo'yicha taqsimlanishi



Oliy ta'lim muassasalaridagi jami talabarni ta'lim olib boriladigan tillari bo'yicha taqsimlanganda, o'zbek tilida 81 foiz, rus tilida 17 foiz, qozoq tilida ta'lim berilayotgan talabalar ulushi 2 foizni tashkil etadi.

## **Oliy ta'lim muassasalarida stipendiya oluvchi talabalarning reyting ballari bo'yicha taqsimlanishi**

Oliy ta'lim muassasalaridagi jami stipendiya oluvchilarning 1224 nafari maksimal reyting baliga ega bo'lgan talabalar (86-100 %), 3222 nafari yuqori reyting baliga ega bo'lgan talabalar (71-85 %), 5688 nafari o'rta reyting baliga ega bo'lgan talabalar (55-70 %) tashkil etadi.

## **Oliy ta'lim tizimining xorijiy davlat bilan hamkorligi**

Bundan tashqari, joriy yilda mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlaridan 3 nafar Turkmaniston yoshlari talabalikka qabul qilingan. Oliy ta'lim muassasalarida 7 nafar talabalar ta'lim olmoqda, shundan Qozog'iston (1 nafar), Turkmaniston (6 nafar). 2 nafar talaba esa, shundan Turkmaniston (1 nafar), Tojikiston (1nafar) o'qishni bitirgan.

## **Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari tarkibi**

Oliy ta'lim muassasalarida 674 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat yuritayotgan bo'lib, ulardan 45 % (303 nafar) ayol o'qituvchilar tashkil etadi.

Fan doktor ilmiy darajaga ega bo'lganlari 17 nafarni hamda fan nomzodlari 128 nafarni tashkil etmoqda.

Shuningdek ilmiy unvoni bo'yicha professorlar 10 nafarni, dotsentlar 94 nafarni tashkil etadi.

*Navoiy viloyati statistika boshqarmasi  
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi*